

UDK: 311.42

KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI – TADBIRKORLIK MUHITINI TAHLIL QILISHNING MUHIM INDIKATORI

Sheraliyev Nurbek Abduxalilovich,
*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining Statistik registrnlarni yuritish
va tizimli xizmat ko‘rsatish boshqarmasi boshlig‘i*
E-mail: registr@stat.uz

ANNOTASIYA. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo‘yicha ma‘lumotlarning shakllanishi, ma‘lumot manbalari va korxonalar va tashkilotlar registrini yuritish bo‘yicha o‘rganilgan xorij tajribasi yoritilgan. Korxonalar va tashkilotlar statistikasiga bevosita aloqador bo‘lgan yalpi ichki mahsulot, ishlab chiqarilgan sanoat va boshqa sohalarga oid statistik ko‘rsatkichlar o‘zaro bog‘liqligi tahlil etilib, ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatimiz tadbirkorlik muhitini tahlil qilishning muhim indikatori sifatida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: korxonalar va tashkilotlar demografiyasi, korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri, KTYADR, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar, yalpi ichki mahsulot, tadbirkorlik subyektlarining faollik darajasi.

АННОТАЦИЯ. В данной статье освещены вопросы формирования информации о демографии предприятий и организаций в Республике Узбекистан, источники информации и зарубежный опыт ведения регистра предприятий и организаций. Анализируется взаимосвязь статистических показателей валового внутреннего продукта, обрабатывающей промышленности и других областей, непосредственно связанных со статистикой предприятий и организаций, и раскрываются эти показатели как важный показатель анализа деловой среды нашей страны.

Ключевые слова: демография предприятий и организаций, единый государственный регистр предприятий и организаций, ЕГРПО, регистрирующие органы, валовой внутренний продукт, уровень активности субъектов предпринимательства.

ABSTRACT. *This article highlights the issues of forming information about the demography of enterprises and organizations in the Republic of Uzbekistan, information sources and foreign experience in maintaining the register of enterprises and organizations. The interrelation of statistical indicators of gross domestic product, manufacturing industry and other areas directly related to the statistics of enterprises and organizations is analyzed, and these indicators are revealed as an important indicator of the analysis of the business environment of our country.*

Key words: *demography of enterprises and organizations, unified state register of enterprises and organizations, USREO, registration bodies, gross domestic product, level of activity of business entities.*

KIRISH

Tadbirkorlar bozor iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi drayveri sifatida harakat qilishlari mumkin. Yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish orqali ular yangi ish o'rinlarini yaratadilar, bu esa pirovardida iqtisodiy rivojlanishning tezlashishiga olib keladi. Demak, tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi davlat siyosati iqtisodiy o'sishni ta'minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan milliy iqtisodiyotimizni taraqqiy ettirish va ilg'or xorijiy davlatlar qatoridan o'rin egallashi uchun zarur asoslarni yaratgan Qonunlar, Strategiya va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon, qaror va farmoyishlari qabul qilingan.

Jumladan, davlat rahbarining 2022-yil 20-dekabrdagi **2023-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida** [1] keng ko'lamli va samarali islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshganligi, shuningdek, milliy iqtisodiyotga shu yilning o'zida 8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib kelganligi, eksport esa, 19 milliard dollarga yetganligi qayd etilgan.

Bunda, albatta barcha korxonalar va tashkilotlarning jumladan, tadbirkorlik subyektlarining o'ri katta.

Shu bilan birga, 2023-yildagi ustuvor yo'nalishlarning beshinchi yo'nalishida, erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o'rin egallashi kerakligi ta'kidlandi.

Shundan kelib chiqib, iqtisodiy islohotlarni qat'iy davom ettirish, ichki imkoniyatlarni to'liq safarbar qilib, xususiy sektorni yanada qo'llab-quvvatlash, buning uchun, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini tobora yaxshilash bo'yicha islohotlarni jadallashtirish lozimligi alohida belgilab berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining asosiy vazifalaridan biri – rasmiy statistika sohasida rivojlanishning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy metodologiyaga, xalqaro standartlar va qoidalarga asoslangan yaxlit milliy statistika tizimini yaratishga va uning faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikadan foydalanuvchilar, shu jumladan, xorijiy foydalanuvchilarni ishonchli va rasmiy statistika ma'lumotlari bilan ta'minlash hisoblanadi [3] [4].

Shundan kelib chiqib, Respublikada faoliyat olib borayotgan iqtisodiy birliklarning hisobini yuritishni tizimli tashkil etish maqsadida, Statistika agentligi tomonidan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri amaliyotga joriy etilgan va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar tomonidan taqdim etiladigan ma'muriy ma'lumotlar asosida korxonalar va tashkilotlar haqida ma'lumotlar bazasi yuritilishi yo'lga qo'yilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 539-son qarori bilan tasdiqlangan "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizom"ga asosan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYaDR) yuritiladi [11].

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar, jumladan:

- Davlat xizmatlari markazlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagi 66-son va 2022-yil 28-sentabrdagi 542-son qarorlariga asosan tadbirkorlik subyektlari va tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni [14];

- Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martdagi 57-son qaroriga asosan Nodavlat notijorat tashkilotlarini;

- Markaziy bank "Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Markaziy bank boshqaruvining qaroriga (2020-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3252) asosan **tijorat banklarini** ro'yxatdan o'tkazadi.

O'z navbatida ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar tomonidan KTYaDRni yuritish uchun zarur bo'lgan, yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritilgan yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, bevosita Internet tarmog'idagi Statistika agentligining www.stat.uz idoraviy saytida avtomatik tarzda aks etib boradi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritishning maqsadi:

- yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida yuridik shaxslarning yagona davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlash;

- ro'yxatdan o'tkazuvchi va davlat boshqa organlaridan olingan yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va saqlash, shuningdek ularni davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga belgilangan tartibda taqdim etish;

- statistika registrlarini hamda statistika kuzatuvlari obyektlari ma'lumotlar bazalarini shakllantirish va muntazam yangilab borish;

- respublika va hududiy davlat boshqaruvi organlari bilan axborotlar borasida o'zaro hamkorlik qilishda ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning mosligini va taqqoslanuvchanligini ta'minlashdan iborat [10].

KTYaDRning maqsadlaridan biri o'laroq, tadbirkorlik subyektlarining demografiyasi bo'yicha oylik, choraklik va yillik ma'lumotlar shakllantirilib, muntazam ravishda foydalanuvchilarga taqdim etib kelinmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 539-son qarori bilan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida olish mumkin bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati 8 tadan 16 turga ko'paytirilgan, korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatish hamda foydalanuvchilarga taqdim etish, ma'lumotlarni inson omili aralashuvisiz davlat xizmatlari markazlari va O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (<https://my.gov.uz/uz/service/662>) orqali onlayn rejimda olish imkoniyati yaratilgan.

Shu bilan birga, Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxslar (STIR) kodini kiritib, yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni olish xizmati joriy etilgan [15].

Bir so'z bilan aytganda, Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori davlat xizmatini ko'rsatish jarayonlarida ortiqcha byurokratik to'siqlarning paydo bo'lishini oldini olish bilan bir qatorda rasmiy statistikadan foydalanuvchilarni ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Milliy statistika tizimida solishtirma ma'lumotlar va ko'rsatkichlarni shakllantirish bilan bir qatorda korxonalar va tashkilotlar registri ham xalqaro miqyosda mavjud talablarga mos kelishi zarur. Aynan shu talab bugungi kunda har qanday statistika tizimidagi registrlarning muhim vazifasi hisoblanadi.

Korxonalar va tashkilotlar demografik ko'rsatkichlari shakllanishining xususiyatlari va tendensiyalarini o'rganish jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o'sishi tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash, ularning sonini ortishi bilan uzviy ravishda bog'liq hisoblanadi [6].

Xususan, 2010-yil yakuniga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari (*fermer va dehqon xo'jaliklarisiz*) 159,8 mingtaga teng bo'lgan bo'lsa, YaIM hajmi 78,9 trln. so'mni tashkil qilgan. 2022-yil yakuni bilan faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari 367,4 mingtaga yoki 3,3 baravarga ortib, 527,2 mingtani tashkil etdi. O'z navbatida ushbu davrda YaIM hajmi 888,3 trln. so'm darajasiga yetdi.

Hududlar kesimida tadbirkorlik subyektlari sonining 2010-yilga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Samarqand (4,8 baravar), Navoiy (4,3 baravar), Jizzax (4,2 baravar), Toshkent (3,6 baravar) va Farg'ona (3,6 baravar) viloyatlarida kuzatilgan.

Shuningdek, korxonalar sonining sezilarli o'sishi sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari sonining 29,9 mingtadan 98,6 mingtaga ortgani bilan ifodalash mumkin.

Quyidagi faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni va YaIM dinamikasidan ko'rish mumkinki tadbirkorlik subyektlari soni o'sishiga mos ravishda YaIM hajmi o'sishi kuzatilgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni va YaIM dinamikasi

Ulardan 3 yilgacha bo'lgan davrda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining soni 238,6 mingtani, 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan davrda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining soni 118,8 mingtani, 5 yildan 10 yilgacha bo'lgan davrda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining

soni 86,7 mingtani va 10 yildan ortiq davrda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining soni 83,0 mingtani tashkil qiladi.

Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soniga nisbatan 10 yildan ortiq davrda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushlari Sirdaryo (18,2 foiz), Andijon (18,0 foiz), Farg'ona (17,4 foiz), Qashqadaryo (17,1 foiz) viloyatlari va Toshkent shahrida (17,4 foiz) qayd etildi.

Hozirda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini 3 666 tasi yirik korxonalar va 523 556 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

1-jadval

Tadbirkorlik subyektlarining faollik darajasi

Yillar	Jami	shu jumladan:			
		3 yil davomida faoliyat ko'rsatayotgan	3 - 5 yil davomida faoliyat ko'rsatayotgan	5 - 10 yil davomida faoliyat ko'rsatayotgan	10 yildan ortiq davrda faoliyat ko'rsatayotgan
2018-yil	265 016	107 419	37 352	60 876	59 369
2019-yil	337 096	165 894	43 058	61 898	66 246
2020-yil	414 186	216 520	54 615	68 712	74 339
2021-yil	465 889	251 608	67 999	69 922	76 360
2022-yil	527 222	238 649	118 837	86 708	83 028

Shuningdek, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining [2] yettita ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur Taraqqiyot strategiyasi milliy iqtisodiyotni isloh qilish, tadbirkorlikni hamda hududlarni jadal rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, 21-maqsadni amalga oshirish doirasida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish lozim.


Ikkinchidan, 22-maqsadga erishish uchun milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish ko'zda tutilgan.

Uchinchidan, 29-maqsad ijrosini ta'minlash doirasida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun

sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsad qilingan.

YaIMda sanoat ulushini oshirish Taraqqiyot strategiyasining maqsadlaridan bo'lish bilan bir qatorda keng ko'lamli va samarali islohotlar natijasi o'laroq, sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari 2023-yil 1-yanvar holatiga 2011-yilning mos davriga nisbatan 68,8 mingga ortib 98,7 mingtani tashkil qildi. Jami faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining 18,7 foizi sanoat korxonalariga hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari savdo sohasida – 34,7 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 10,1 %, qurilish sohasida – 8,9 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari sohasida – 7,0 %, tashish va saqlash bo'yicha xizmatlar sohasida 3,9 %, axborot va aloqa sohasida 2,3 % hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida – 1,9 %ni tashkil etadi.



2-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari

Shuningdek, yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 90 565 tani tashkil etib, bu esa mamlakatimizda oyiga o'rtacha 7 mingdan oshiqni tashkil etmoqda.

Respublika hududlarida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasini baholashning ko'rsatkichlaridan biri tegishli hududda faoliyat yuritayotgan


tadbirkorlik subyektlari sonining ushbu hududdagi har 1 000 nafar aholiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha miqdori bilan o‘lchanadi.

Doimiy aholi sonining umumiy o‘shishi 753,6 ming kishini tashkil etib, 2023-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni 36 024,9 ming kishiga yetdi [5].

Hududlar kesimida eng ko‘p aholi istiqomat qiladigan hududlardan Samarqand (4 118,4 ming kishi), Farg‘ona (3 976,5 ming kishi), Qashqadaryo (3 482,6 ming kishi), Andijon (3 322,8 ming kishi) va Namangan viloyatlari (2 997,6 ming kishi) hisoblanadi.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublika bo‘yicha har ming nafar aholiga to‘g‘ri keladigan faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari 14,6 tani tashkil qiladi.

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, eng ko‘pi Toshkent shahar (36,4 ta), Navoiy viloyati (21,7 ta), Sirdaryo viloyati (16,8 ta), Toshkent viloyati (16,6 ta), Jizzax viloyati (15,3 ta) va Buxoro viloyati (15,0 ta) hissasiga to‘g‘ri keladi.



3-rasm. Har ming nafar aholiga to‘g‘ri keladigan faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari

Shu bilan birga, aholisi ko‘p bo‘lgan hududlarda barcha rezerv va imkoniyatlarni to‘liq safarbar etish orqali tadbirkorlik subyektlari sonini ortishiga, shu jumladan, yalpi hududiy mahsulot hajmini ortishiga erishish mumkin [9].

Mamlakatimiz taraqqiyotining zamonaviy bosqichida yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida so'nggi yillarda milliy statistika sohasini yanada rivojlantirish va xalqaro standartlarga [7] to'liq moslashtirish yuzasidan ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, ma'lumotlarning xalqaro miqyosda almashinuvini ta'minlashda ham korxonalar va tashkilotlar registrining roli beqiyos [8].

Xalqaro tajribaga qaraydigan bo'lsak, korxonalar statistik registri Qozog'iston Respublikasi rasmiy statistikasining ajralmas qismi hisoblanadi [12]. Uning huquqiy maqomi "Davlat statistikasi to'g'risida"gi Qozog'iston Respublikasi qonuni bilan belgilanadi.

Korxonalar statistik registri Qozog'iston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar, uning tarkibiy bo'linmalari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Korxonalar registri "e-Statistika" Interatsiyalashgan axborot tizimi tarkibiy qismi hisoblanib, ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar ma'lumotlari asosida yuritiladi.

Malayziyada esa korxonalar registri Malayziya statistika departamenti tomonidan yuritiladi [13]. Xususan, korxonalar va tashkilotlar bo'yicha ma'lumotlarni Malayziya korxonalar statistik registri (i-MSBR) tizimidan olish joriy etilgan.

Ushbu tizim, Malayziyada faoliyat yurituvchi korxonalar va tashkilotlar registri bo'lib, Malayziya Kompaniyalar komissiyasi orqali ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar, korxonalar va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar registrini, shuningdek, mahalliy hokimiyat va professional organlarda ro'yxatdan o'tgan tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda ham Statistika agentligi tomonidan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini xalqaro amaliyotga muvofiq takomillashtirish bo'yicha bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilab olingan, jumladan:

- vazirlik va idoralar bilan hamkorligida KTYaDRni vazirlik/idoralar axborot tizimlari bilan integratsiya qilish jarayonini davom ettirish va belgilangan tartibda ishlashini ta'minlash;

- KTYaDRni yuritish uslubiyotini so'nggi xalqaro tavsiyalarga to'la moslashtirish;

- xalqaro va milliy standartlariga muvofiq statistik klassifikatorlarni ishlab chiqish va yangilab borish;

- Jahon banki va Osiyo taraqqiyoti banki bilan hamkorlikda Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri bazasini takomillashtirish ishlarini amalga oshirish.

Umuman olganda, mazkur tadbirni o'tkazish yakunida mamlakatimizda iqtisodiyotga, xususan, korxonalar va tashkilotlarga doir muhim ko'rsatkichlarni aniqlab olish, hamda ularni sifatini oshirish imkoniyatiga ega bo'linadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. <https://president.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022-yil 28-yanvar "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qarori. Xalq so'zi. <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni. 2021-yil 11-avgust. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2021-yil №8. <https://lex.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi gender statistikasi veb-sayti: <https://gender.stat.uz/uz>
6. Бегалов Б.А. Основные определения и термины по статистике. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Ташкент. 2020 г. 10-25 ст.
7. Generic Law on Official Statistics. UNECE. New York and Geneva. 2016. 32-32 p.
8. United Nations Guidelines on Statistical Business Registers. New York and Geneva. 2015. 120-130 p.
9. Льюис К.Д. Методы прогнозирования экономических показателей. Москва. Финансы и статистика, 2001. 55 ст.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2014-yil 30-may "Yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiya qilishni avtomatlashtirilgan axborot tizimi "Reg-System"da ishlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 3-mb-son qarori (ro'yxat raqami 2594, 2014-yil 12-iyun). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 24-son, 299-modda.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 539-son "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini

yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. <https://www.lex.uz>

12. Qozog'izston Respublikasi Milliy statistika byurosi rasmiy veb-sayti. <https://www.stat.gov.kz>

13. Malayziya statistika departamenti rasmiy veb-sayti. <https://www.dosm.gov.my/portal-main/home>

14. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://www.lex.uz>

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti: <https://www.stat.uz>